

ZAMONAVIY YOSHLAR TARBIYASIDA-PSIXOLOGIYA

Sidiqova Saida Erkinboy qizi

Toshkent viloyati Piskent tumani 25- maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar tarbiyasida psixologiyaning o‘rni, yoshlar ongiga ta’sir etuvchi omillar hamda ularni sog‘lom, ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishda psixologik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar va global o‘zgarishlarning yoshlar psixologiyasiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy yoshlar, tarbiya, psixologiya, ijtimoiy muhit, motivatsiya, raqamli texnologiya, shaxs rivoji, o‘zlikni anglash, ijtimoiy tarmoqlar, ma’naviy tarbiya.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasi masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi yoshlar tez o‘zgarayotgan axborot makonida, turli ijtimoiy ta’sirlar ostida shakllanmoqda. Shu sababli ularning psixologik rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirish, sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Psixologiya yoshlar tarbiyasida asosiy yo‘naltiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi. U insonning ichki dunyosini, hissiy holatini, fikrlash tarzini va xulq-atvorini o‘rganadi. Yoshlarning ehtiyojlari, qiziqishlari va muammolarini tushunish orqali ularga to‘g‘ri yondashuvni tanlash mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar, internet va turli media vositalar yoshlarning fikrlashi, muloqoti va o‘zini anglashiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat ijobiy imkoniyatlar bilan birga, ma’lum xavflarni ham yuzaga keltiradi. Masalan, virtual muhitda ortiqcha vaqt o‘tkazish, taqqoslash, o‘ziga ishonchsizlik yoki agressivlik kabi holatlar paydo bo‘lishi mumkin.

Shu bois, psixologik yondashuvda muvozanat muhim hisoblanadi. Yoshlarni texnologiyadan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, real hayotdagi muloqot va faoliyatni

rivojlantirish zarur. Ota-onalar va pedagoglar bu borada nazorat va ishonch o'rtasida to'g'ri muvozanatni topa olishlari kerak.

Zamonaviy yoshlar mustaqillikka intiluvchan bo'ladi. Ular o'z fikriga ega bo'lishni, qaror qabul qilishni va o'z yo'lini tanlashni xohlaydi. Shu sababli tarbiya jarayonida buyruq va bosimdan ko'ra, tushuntirish, maslahat berish va qo'llab-quvvatlash samaraliroq natija beradi.

Motivatsiya masalasi ham muhim o'rin tutadi. Yoshlarni maqsad qo'yishga, o'z ustida ishlashga va muvaffaqiyatga erishishga undash uchun ularning qiziqishlariga mos faoliyatlar tashkil etish lozim. Har bir kichik yutuqni e'tirof etish esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy muhit, ayniqsa oila va ta'lim muassasalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila — mehr va tarbiyaning asosiy manbai bo'lsa, maktab — bilim va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi maskandir. Ushbu ikki muhit o'zaro hamkorlikda ishlasa, yoshlarning rivojlanishi samaraliroq bo'ladi.

Shuningdek, zamonaviy yoshlar bilan ishlashda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Har bir yoshning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlari turlicha bo'ladi. Shu sababli umumiy yondashuvdan ko'ra, individual yondashuv samaraliroq natija beradi. Jamiyatimizda yoshlar psixik taraqqiyotida hal etish zarur bo'lgan milliy psixologik muammolar mavjudki, mazmunan ularni bartaraf etishga e'tibor berilsada, yoshlar tarbiyasiga oid salbiy holatlar, kamchiliklar, ijtimoiy munosabatlar tizimida nizoli vaziyatlar uchrab turibdi. Ta'kidlash joizki, barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi bizning yurtimizda yoshlarimiz orasida ham tarbiyasi og'ir va noqobil yoshlar mavjud bo'lib, jamiyatimizda ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ular bilan ishlash azaldan dolzarb muammolardan biri hisoblanib keladi. Ma'lumki, yoshlarning psixologik jihatdan o'sishi va rivojlanishi, hayotning hamma bosqichlarida turlicha bo'lib, ularning yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab o'zgarib boradi. Demak, har bir ota-ona va o'qituvchilar yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan holda amaliy hayotda bu ishga to'g'ri yondashishlari maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, mutafakkirlarimizning fikricha, yoshlar xulqining mo‘tadillikda saqlanishiga alohida e‘tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat borligi e‘tirof etiladi. Birinchisi – yoshlarning psixologik holati uchun bo‘lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo‘lib o‘sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo‘lib qoladi. Ikkinchisi – uning tanasi uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo‘ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g‘azab kuchli qizdiradi, qayg‘u kuchli quritadi, hafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo‘shashtirib, mijozni buzadi. Demak, tarbiyaviy ishdagi e‘tiborsizlik, salbiy muhit, ziddiyatlar, tarbiya qoida va usullariga to‘g‘ri amal qilmaslik, yohud yaxshi bilmaslik, ota-onalarning o‘z farzandlariga doimiy ravishda qo‘rslik bilan munosabatda bo‘lishlari yoshlar orasida tarbiyasi “qiyin” bolalarning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Psixologiyada shaxs bilan bog‘liq tushunchalar ichida “Men – konsepsiya” tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi-yoshlarning atrofidagi tengdoshlari bilan munosabatini belgilab beradigan o‘zi haqidagi tasavvurlar to‘plamidan iboratdir. Tarbiya jarayonida esa “Men – konsepsiya” yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi, chunki o‘qituvchi yoshlarga o‘zi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib baho beradi, ularga o‘zi o‘zlashtirgan tajribani yetkazadi. Agar o‘qituvchi ijobiy “Men – konsepsiya”ga ega bo‘lsa, ya‘ni unda shaxsiy to‘laqonlik hissi mavjud va yetarlicha emotsional barqaror bo‘lsa, bunday o‘qituvchining o‘quvchilar bilan munosabati faqat ijobiy timsollar asosida quriladi. O‘z-o‘zidan mahlumki o‘qituvchining ijobiy “Men – konsepsiya”si o‘quvchilarning shakllanishiga ijobiy tahsir ko‘rsatadi, chunki inson yoshidan qat‘iy nazar o‘z faoliyatiga nisbatan ijobiy baholashga ehtiyoj sezadi, bunday munosabat va ibrat esa o‘quvchilarda ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishi ehtimoldan holi emas.

Yosh avlodni dunyo qarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu borada, amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha izlanishlarning tahlili quyidagi ayrim jihatlarga e‘tibor qaratish kerakligini ko‘rsatmoqda: yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissinii singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta‘siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga

qaratilgan chora-tadbirlarni jadallashtirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan murossasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyatini oshirish;

O‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniyko‘ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta‘lim to‘garaklar hamda sport seksiyalarini faoliyatini jadallashtirish; o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzini, ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish tizimini oshirish, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash hamda ilmiyinnovatsion yaratuvchanlik dunyoqarashini shakllantirishga oid chora-tadbirlarni kuchaytirish; yoshlarning oliy ta‘lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishilmasligiga sabab bo‘lmoqda; sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Zotan, mustaqillik fikr-mulohazalarda ozod, o‘z haq-huquqini yaxshi taniydigan, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminga sadoqatli, boqimandalikning har qanday ko‘rinishlari o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan barkamol yoshlarni tarbiyalashni talab etadi.

Rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta‘lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo‘lib ilgari surdi va uni “Ta‘lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o‘z orqasidan ergashtirib olib boradi”, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta‘lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga, xalaqit bermaslik, balki ta‘lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan kutib turish kerak.

O'quvchi-yoshlar kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir bo'ladi. O'zgarishlar uning oldiga yangi talablar qo'yadi, bu esa o'z navbatida ko'proq huquq va erk berilishini, eng avvalo mustaqil qarorga kelish va o'z xulq-atvorini maqbul deb hisoblab amalga oshirishni taqozo qiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqororlik o'smirlik davrinig eng muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Shu jumdan, o'smirlik yoshidanoq "O'qish-zakovat kaliti" shioriga amal qilish va fidoyilik ko'rsatish zarur. Qolaversa, yoshlarda o'z-o'zini anglashning tarkib topishi asosida shaxsga xos bo'lgan yaxshi fazilatlarni o'zlarida paydo qilish masalasi tug'iladi. Yoshlar ko'pincha o'z harakatlarida faqat katta yoshdagi kishilarga yoki o'rtoqlariga taqlid qilibgina qolmay, balki har bir ishni o'z xohlaganlaricha qilishga, mustaqillikka, boshqalarga o'xshamaslikka intiladilar. Albatta, bu davrda ham bolalarda mustaqillikni uyg'otish va uni qo'llabquvvatlash bilan birga pedagoglar bola shaxsining tarkib topishi jarayonida ularni doim yo'lga solib turishlari kerak bo'ladi. Lekin tarbiyachilik bunda yoshlarning o'z ijodiy faoliyatlarini, tashabbuslarini ustalik bilan yo'lga sola bilishlari va ularning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishda ko'rsatayotgan o'rinli qat'iyatliklarini bo'g'ib qo'ymasliklari lozim. Aniqrog'i, yoshlardagi faollik va mustaqillikka bo'lgan intilishini tegishli ravishda izga solmoq kerak.

Yoshlarga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg'ayganda buning foydasi hamda berilagan tarbiyaning to'g'riligini ongli ravishda tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o'qishni o'zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko'tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o'yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo'lmaydi. Uni o'qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo'lmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yoshlar tarbiyasida psixologiyaning o'rni beqiyosdir. To'g'ri psixologik yondashuv orqali yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. G‘oziyev E., Sotsial psixologiya. “Noshir” nashriyoti, 2012, 169 b.
2. Davletshin M., (2002). Umumiy psixologiya. TDPU, 38 b.
3. G‘oziyev E., “Psixologiya”. Toshkent., 1994 y.136 b.
4. Ivanov P.I., Zufarova M.E. “Umumiy psixologiya”. T. – “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2008 y. 383 b.
5. Ziyonet